

“19” dekabr 2022 yil

Toshloq t.

Ushbu shartnoma bir tomondan Nizomga asosan ish yurituvchi “Shuxrat qurilish ta’irlash” X/K (kelgusida “Pudratchi” deb ataladi) nomidan raxbar Sh.Axmedov va ikkinchi tomondan Toshloq tumani MTB (kelgusida “Buyurtmachi” deb ataladi) nomidan raxbar G.Abdusamadova tomonidan quyidagilar to’g’risida tuzildi:

### **1. Shartnoma predmeti**

- 1.1. “Pudratchi” obektni ushbu shartnoma shartlari va smeta xujjatlari bo’yicha qurilish ishlarini sifatli bajaradi, “Buyurtmachi” esa uni qabul qilib oladi.
  - 1.2. Bajarilgan ish assortimenti va bahosi (spetsifikatsiyasi) Toshloq tuman 19-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini joriy ta’irlash ishlarini bajarish
- Shartnomaning umumiy summa: **591274400 (Besh yuzi to’qson to’rt million ikki yuzi yetmish to’rt ming to’rt yuz) so’m. QQS summasi 77122747,83 so’m**

### **2. Baxo va to’lov tartibi**

- 2.1. Bajarilgan ish uchun to’lov pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladi.
- 2.2. “Buyurtmachi” shartnoma umumiy summasining 30%i, avans tariqasida shartnoma to’liq kuchga kirgan kundan boshlab 20 bank ish kuni mobaynida, qolgan qismi, 70%ini, “Pudratchi” qurilish ishlarini bitirgan kundan boshlab 30 bank ish kuni davomida “Pudratchi”ning bank xisob raqamiga o’tkazib berishi shart.

### **3. Pudratchining qurilish ishlarini bitirish muddati va tartibi**

- 3.1. “Pudratchi” maxsulotni xisob raqamiga avans mablag’i kelib tushgan kundan boshlab 10 ish kunida qurilish ishlarini bitirib beradi.
- 3.2. Obekt “Pudratchi”ning ishchi va texnikasi yordamoda ta’irlanadi.
- 3.3. Bino, tamirlash ishlari yakunlanib, bajarilgan ishlar dalolatnomas va xisob-varaq fakturaga imzo qo’yib qabul qilib olingan vaqtdan boshlab «Buyurtmachi»ning mulkiga aylanadi.

### **4. Obektni topshirish va qabul qilish**

- 4.1. “Buyurtmachi” vakolatli shaxsi qabul qilib olish jarayonida binoning ishga yaroqliligini, sifati, miqdori jixatidan shartnomaga mos kelishini tekshirib olishi lozim. Bino to’liq qabul qilib olingandan so’ng obektni saqlash javobgarligi «Buyurtmachi» vakolatli shaxsi zimmasiga o’tadi.

### **5. Qurilish sifati**

- 5.1. Qurilish sifati O’zbekiston Respublikasi qurilish standarti talablariga javob berishi shart.

### **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

- 6.1. «Buyurtmachi» shartnomaning 2.2 bandida ko’rsatilgan to’lovni belgilangan muddatda kechiktirib yuborgan xolda, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4%i miqdorida ko’shimcha peniya to’laydi. Lekin to’langan peniyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to’lov summasining 50% idan oshib ketmasligi lozim.
- 6.2. “Pudratchi” joriy ta’irlash ishlarini shartnomaning 3.1 bandida ko’rsatilgan muddatda bitirib bermagan taqdirda, kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan ish qiymatining 0,5%i miqdorida peniya to’laydi. Lekin to’langan peniyaning umumiy miqdori kechiktirilgan ishlar qiymatining 50%idan oshib ketmasligi lozim.
- 6.3. Nazorat organlari tomonidan o’tkazilgan tekshiruvlari davomida bajarilgan ishlardan kamchiliklar yoki qo’shib yozishlar aniqlangan taqdirda o’rtadagi farq “Pudratchi” tomondan qoplanadi.

## **7. Nizolarni xal etish tartibi**

7.1. Nizoli vaziyatlar tomonlarning o'zaro kelishuvchi asosida xal etiladi.

7.2. Nizoli vaziyatlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida xal etilmagan taqdirda Marg'ilon tumanlararo Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

## **8. Tomonlarning javobgarligi**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

8.2. "Pudratchi" tomonidan "Buyurtmachi" ga qurilish ishlari belgilangan muddatlarda bajarilmaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ish qiymatining 0,5 % miqdorida "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan qurilish ishlari qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

8.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda to'liq ishlar bajarib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu qurilish ishlari qiymatining 20% miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

8.4. "Pudratchi" tomonidan qabul qilib olingan qurilish obekti uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4% miqdorida "Pudratchi"ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50% dan ortiq bo'lmasligi lozim.

## **9. Fors – major**

9.1. Agarda ushbu shartnoma shartlarini bajarishga xalal beruvchi yengib bo'lmas kuchlar – ombarga, urush e'lon qilinishi, zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar yoki O'zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan aloxida qaror va farmoyishlar yuzaga kelsa, u xolda tomonlar ushbu yengib bo'lmas kuchlar ta'siri vaqtida shartnomaviy javobgarlikdan ozod etiladilar.

## **10. Qo'shimcha shartlar**

10.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuziladi xamda tomonlarning xar birida 1 (bir) nusxadan saqlanadi. Shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi. Agar tomonlardan biri o'ziga tegishli nusxani yo'qotgan taqdirda qolgan nusxaning kseronusxasi xaqiqiy deb xisoblanadi.

10.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 2-kichik bo'lim, 27-bob, 366-moddasiga asosan shartnoma G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng to'liq yuridik kuchga ega deb xisoblanadi.

10.3. Tomonlarning yuridik manzillari yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda 3 bank ish kuni davomida bir-birlarini yozma ogoxlantirishlari shart.

10.4. Tomonlardan biri ikkinchisining yozma ravishda tasdiqlangan rozilik xatisiz shartnoma bo'yicha xuquq va majburiyatlarni uchinchi shaxs zimmasiga o'tkazolmaydi.

## **11. Korruptsiyaga qarshi kelishuv**


11.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga,shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi,ya'ni ular, ularning xodimlari,kafillangan shaxslar,benefitsiar va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim.Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.


11.2 Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda(elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni(78 150 26 03)orqali bir-birini xabardor qilishi majburiyatini oladi.Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadidi yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

11.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda,shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa,tomonlar amalga oshirgan choralari korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa,boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

11.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishini talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi,ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplanishini talab qilishga xaqli emas.

### Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari:

“X A R I D O R”	“Pudratchi”
<p><b>Toshloq tumani maktabgacha ta'lim bo'limi</b></p> <p>Manzil: Toshloq tumani A.Navoiy ko'chasi 30 y  X/R: 23402000300100001010  Bank: Markaziy bank Toshkent SHBB  MFO: 00014  INN: 305153709  SHXR: 100022860302277091100251001</p>	<p style="text-align: center;"><b>“Shuxrat qurilish ta'mirlash” X/K</b></p> <p>Manzil: Farg'ona shahar  x/r: 20208000100269034001  bank: ФАРГОНА Ш., ХАТ БАНКИ  "УНИВЕРСАЛ БАНК" ФАРГОНА ФИЛИАЛИ  MFO: 01131  INN: 302768015  Raxbar:  Sh. Axmedov</p>

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	GULIRUXSOR ABDUSAMADOVA NABIYEVNA
	Imzolangan sana	19.12.2022 16:46
	Hujjat kodi	<b>JE3641880874</b>
	Hulosa kodi	<b>GS4841304423</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

GS4841304423

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **19-Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlash uchun pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: TOSHLOQ TUMAN MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI tomonidan 14.12.2022 yilda kiritilgan.

Shartnomada ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faolyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faolyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 6,7,15-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-384,385-moddalari talablariga mos keladi.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yorlari va nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faolyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari, 2021-yil 14-sentabr kungi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6313 sonli Farmoni 3-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Toshloq tuman yuridik  
markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**M.M.RAXIMOV**

19.12.2022